

BOBURNOMADAGI GEOGRAFIK TASVIRLAR: HUDUDLAR TARIXI VA ULARNING O'RNI.

Abduvaliyeva Nozima Umarali qizi–
Farg'ona davlat universiteti 3-kurs
23.86-guruh talabasi

Kalit so'zlar: Boburnoma, geografik tasvir, shaharlar, davlatlar, Farg'ona, Xuroson, Qobul, Andijon, tarixiy geografiya, Bobur.

Anotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida uchraydigan geografik tasvirlar, shahar va mamlakatlarning tarixiy o'rni hamda ularning siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Asarda Farg'ona, Xuroson, Andijon, Hindiston kabi hududlarning tabiiy-geografik xususiyatlari, aholisi, shaharsozlik darajasi va strategik mavqei haqida Boburiy kuzatishlar yoritilgan. Tadqiqot Boburning geografik tavsiflarining ilmiy ahamiyatini ko'rsatib berishga qaratilgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari o'z davri geografiyasi va tarixiy jarayonlarini chuqur aks ettirgan noyob manba hisoblanadi. Asarda muallif o'zining harbiy yurishlari, siyosiy tajribalari va sayohatlari davomida uchragan shaharlar, davlatlar, tog'lar, daryolar, iqlim sharoitlari va xalqning turmush tarziga oid juda ko'p ilmiy qimmatga ega ma'lumotlarni qayd etadi. Bobur geografik tasvirlar berishda nafaqat kuzatuvchan, balki ilmiy fikrlashga moyil bo'lgan davlat arbobi sifatida namoyon bo'ladi. Uning tasvirlarida tabiiy sharoitlar, joyning relyefi, qishloq xo'jaligi salohiyati, shaharlarning strategik mavqei kabi ko'plab omillar batafsil yoritilgan.

Bobur o'z zamonasining ilg'or fikrlovchi tarixchisi, geografiya va etnografiyani puxta bilgan tadqiqotchisi edi. U har bir hududni tasvirlar ekan: tabiat, relyef, ob-havo,

daryolar, ekinlar, aholi, shaharsozlik va urf-odatlar kabi jihatlarni batafsil yozib boradi. Bu esa asarni ensiklopedik ahamiyatga ega qiladi.

Boburning tugʻilib oʻsgan makoni — Andijon, shuningdek Samarqand, Buxoro, Termiz, Xoʻjand kabi shaharlar asarda keng tasvirlanadi.

“Fargʻona viloyati beshinchi iqlimdindur. Maʼmuraning kanorasida voqe boʻlubtur. Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Gido-girdi togʻ voge boʻlubtur. Samarqand va Xoʻjand boʻlgʻay togʻ yoʻqtur. Ushbu jonibtin oʻzga hech joniptin qish yogʻiy kela olmas”, deya Fargʻonani taʼriflab oʻtadi.

Bundan tashqari asarda Margʻilon haqida ham gap ketadi. “ Andijonning gʻarbidadur. Abdijondan yeti yigʻoch yoʻldur. Anori va oʻrugʻI asru koʻp-xoʻp boʻlur. Bir jins anor boʻlur, “dona kalon” derlar, chuchukligida zardolu mayxushligidin andak choshni bor. Margʻinonning Rushdon otliq kentidindur”, deya taʼriflaydi. Yaʼni bu yerda anori va oʻrigi, Rishodiy haqida ham soʻz bormoqda.

Asarda Xoʻjandni ham gapirib oʻtadi. “ Yana biri Xofjanddur. Andijondin gʻarb sorigʻa yigirma besh yigʻoch yoʻldur. Xofjanddin Samarqand ham yigirma besh yigʻoch yoʻldur, qadim shaharlardindur. Shayx Muslihiddin va Xoja Kamol Xofandtindurlar”.

Bundan tashqari Xoʻjandni mevasi, qushlari, iqlimi haqida ham gapirib oʻtadi. Yaʼni oq kiyik, bugʻu maral, qirgʻovul va tovushqon u yerda koʻpligini, havosi tozaligini va kuz paytlari bezgak koʻp boʻlishi haqida ham soʻz yuritadi. Koʻp bezgak boʻlishi havoning sovuqligidandur deb aytib oʻtadi.

“Boburnoma”da tasvirlangan shahar va mamlakatlar geografiyasi Bobur shaxsining keng dunyoqarashi, ilmiy kuzatuvchanligi va davlat boshqaruvidagi tajribasi bilan uygʻunlashgan. Asar XV–XVI asrlardagi Movarounnahr, Xuroson, Afgʻoniston va Hindistonning tabiiy, siyosiy va iqtisodiy holatini oʻrganishda eng muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 2017.

2. Bobur, Z. M. Bobur-noma (forscha matn va tarjima). N.Mallayev tahriri ostida. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1969.
3. Mallayev, N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Universitet, 1993.
4. Karimov, I. Boburiylar saltanati tarixi. – Toshkent: Fan, 2002.
5. Shamsiyev, A. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989.
6. Vohidov, R. O‘zbek mumtoz adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
7. Saidov, U. Markaziy Osiyo geografiyasi va tarixiy o‘zgarishlar. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2010.